

1-амалий машғулот.

Mavzu: Maktab biologiya fanlari bo'yicha tavsiya qilingan darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ko'rib chiqish va tahlil etish.

Amaliy mashg'ulotining maqsadi:

Talabalarni umumiy O'rta ta'lim maktab biologiya fanlari bo'yicha tavsiya qilingan darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ko'rib chiqadi va darsliklarda berilgan mavzularni tahlil qilishga o'rgatish;

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tuzilgan davlat ta'lim standartini bajarish respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha ta'lim muassasalari uchun majburiy ekanligini bilishi;
- Umumiy o'rta ta'lim maktablarining botanikadan tuzilgan davlat ta'lim standartining mazmuni va mohiyati, ularni ishlab chiqish va joriy etish asoslarini anglashi;
- Botanikadan tuzilgan davlat ta'lim standarti mazmunining o'quv dasturi bilan uzviyligini tushunishi;
- Botanikadan tuzilgan davlat ta'lim standartida o'quvchilarning bilim va ko'nikmasiga qo'yilgan minimal va maksimal talablarni o'rganishi, ularni nazorat qilish va baholash ko'nikmalari;
- Umumiy o'rta ta'lim maktablarining botanikadan DTS, o'quv dasturi va darsliklarni tahlil qilish ko'nikmasini egallashi;
- Botanikadan tuzilgan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish yo'llarini belgilashi lozim.

Zarur jihozlar: Biologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, 5 va 6-sinf uchun "botanika" darsliklari, "davlat ta'lim standarti va o'quv dasturining uzviyligi" jadvali.

Amaliy mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash metodi.

Amaliy mashg'ulotining borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni amaliy mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish.
3. Botanikadan tuzilgan davlat ta'lim standartining mazmuni va mohiyati bilan tanishtirish.
4. Botanikadan tuzilgan davlat ta'lim standartida berilgan o'quvchilarning egallagan bilim va ko'nikmasiga qo'yilgan minimal va maksimal talablarni o'rganish.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining botanikadan o'quv dasturi va darsliklarni tahlil qilish.
6. Amaliy mashg'ulotini yakunlash.

O'zbekiston respublikasida uzluksiz ta'limni joriy etishning ilmiy-nazariy asosi bo'lgan "ta'lim to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida "davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga

qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim standartlarini bajarish o'zbekiston respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir" deb belgilab qo'yilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida yuqorida qayd etilgan ta'lim muassasalari uchun dts ishlab chiqildi va o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 1999 yil 16-avgustdagi qaroriga binoan amaliyotga joriy etildi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagi printsiplar asos qilib olingan:

- Davlat ta'lim standartining davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;
- O'quv dasturlari mazmunining jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liqligi;
- Umumiy o'rta ta'limning uzluksiz ta'limning boshqa turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;
- Umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;
- Ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- Umumiy o'rta ta'lim mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga tayanish;
- O'qituvchilarning pedagogik tafakkurida qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan "ta'lim to'g'risida"gi va "kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi.

Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Biologik ta'lim umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning ajralmas va uzviy bog'langan tarkibiy qismi sifatida mazkur ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan umumiy maqsadlarga muvofiq barkamol o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Biologiya – tirik tabiat, hayot, uning kelib chiqishi, taraqqiyotining barcha jihatlari haqidagi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, umumta'lim maktablarida biologiya ta'limining roli shu fanning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati bilan belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyani o'qitish 5-sinfda "botanika" ni o'rganishdan boshlanib (haftasiga 1-soatdan, jami 34-soat), 6-sinfda "botanika"ni o'rganish (haftasiga 2-soatdan, jami 68-soat) davom ettiriladi.

Biologik ta'limning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- O'quvchilarni asosiy biologik tushunchalar, etakchi g'oyalar, ilmiy dalillar, qonunlar, ilmiy bilish usullari, organik olamning manzarasini shakllantirishga oid bilimlar bilan tanishtirish;

- Tirik tabiat va uning taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan moslanishlarning mexanizmlari haqida ma'lumot berish;

- O'quvchilarni organizmlarning hayoti, ularning individual va tarixiy rivojlanishining asosiy qonunlari, molekula, hujayra, organizm, populyasiya, tur darajalaridagi biologik hodisa va jarayonlar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, ularning biologiyani o'rganishga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarini o'stirish kelgusidagi uzluksiz ta'lim tizimini davom ettirishlari uchun zamin tayyorlash;

- O'quvchilarni o'zlarining va o'zgalarning salomatligini saqlashga, sog'lom turmush tarzini tarkib toptirishga yo'naltirish;

- Biologiya ta'limi mazmuni hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika taraqqiyoti bilan mustahkam bog'lanishini ta'minlash asosida o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

- Tabiatga, uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo'lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

- Biologiya ta'limi mazmunini o'lkashunoslik materiallari bilan boyitish, biologiya bilimlar zaminida mahalliy o'simlik va hayvon turlari, selektsiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz va hozirgi olimlarimizning biologiyaga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni nazorat qilish davlat ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiyadan davlat ta'lim standarti o'quv fani bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilimlar miqdori, ular egallaydigan ko'nikma va malakalarning hajmini (BKM-bilim, ko'nikma va malaka) ko'rsatuvchi me'yor bo'lib, u umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya ta'limi mazmunining negizini belgilovchi ko'rsatkichlar hamda o'quvchilarning biologik tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasidan iborat bo'lgan rasmiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

“Ta'lim mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar” umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyadan beriladigan bilimlarning minimal darajasini, ya'ni ta'lim mazmunining negizini ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkichlar umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun biologiya o'quv fani dasturi va darsliklarini yaratishda hamda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishda mo'ljal vazifasini bajaradi.

Biologiya ta'limi standartidagi “o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar” o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi shart bo'lgan ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Bunda o'quvchilarning bilishi, anglashi, amaliy ishlarni bajara oladigan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash va ularning sifatini aniqlashga imkon beradi. Belgilangan ko'rsatkich va talablar biologiya ta'limining asosiy sifatlarini baholashda o'lchov bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiyadan davlat ta'lim standartida keltirilgan ko'rsatkich va talablar maktab biologiya ta'limi mazmunini to'liq qamrab oladi va o'zaro bog'lanuvchi uch yo'nalishga bo'linadi:

1. Organizm – biologik sistema;
2. Ekologik sistemalar;

3. Organik olam evolyustiyasi;

Ushbu ta'lim standartining "ta'lim mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar" va "o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar" biologiya ta'limi mazmunining yuqorida keltirilgan har bir yo'nalish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim uchun ko'rsatkich va talablar ifodalanadi.

Biologik ta'limning dastlabki o'quv fani bo'lgan "botanika"dan o'quvchilarning bilim malakasiga bo'lgan asosiy talablar etib quyidagilar belgilangan.

O'quvchilar:

- Gulli o'simliklar organlarining tuzilishini, o'simliklarning hujayra tuzilishini, o'simlik hujayrasining tarkibiy qismlari, to'qimalar;
- O'simliklarning hayotiy shakllari: daraxt, buta, chala buta, bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik o'tlarga bo'linishini;
 - Kuzda va bahorda o'simliklar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarni;
 - Ildiz, uning ichki va tashqi tuzilishini, suv va mineral moddalar shimilishi;
 - Poya, kurtak. Ularning xillari;
 - Gul, uning tuzilishi, xillari. To'pgullar.
 - Meva va urug'lar, ularning xillari haqidagi bilimlarni;
 - O'simlik organlarining asosiy hayotiy vazifalarini: organik modalarning hosil bo'lishi, nafas olish, suv bug'lantirish, moddalarning harakatlanishi;
 - O'simliklarning tabiatdagi roli va inson hayotidagi, xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish tadbirlarini;
 - O'simliklarning urug'dan va vegetativ organlaridan ko'payishini;
 - O'simliklar hayotining jonli va jonsiz tabiat omillari bilan bog'liqligini, o'zaro birga yashashga moslashganligini;
 - Tur, turkum, oila, sinf haqidagi ma'lumotlarni, gulli o'simliklar sinflari va oilalarining mahalliy sharoit uchun xos bo'lgan asosiy, mahalliy o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini;
 - O'simliklar olamining tarixiy rivojlanishi jarayonida o'simliklar tuzilishining murakkablashib borish belgilarini bilishi kerak.

Botanikadan tuzilgan dts ida o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar bilan bir qatorda ular egallashi kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar ham berilgan. Jumladan, botanikani o'rganish davomida o'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarni egallashi qayd etilgan:

- Gulli o'simliklarning organlarini taniy bilishlari;
- O'simliklarning oziqlanishi, nafas olishi, o'sish jarayonlarini aniqlash maqsadida kuzatishlar, oddiy tajribalar o'tkazishlari;
- Erni yumshatish, sug'orish, chopiq qilish, ko'chatlarni ko'chirib o'tkazish, o'g'itlash;
- Tabiatda o'simliklar dunyosidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatishni kuzatish natijalarini rasmiylashtirishni;
- Kattalashtirib ko'rsatadigan asbob va mikroskoplardan foydalanishni;
- Mikropreparatlar tayyorlashni va ularni mikroskopda ko'rishni;

- O‘simliklarni parvarish qilishni bilishlari, maktab va yashash joyini ko‘kalamzorlashtirishda qatnashishi, xona o‘simliklarini tanishi;
- Qalamcha tayyorlashni va qalamchalardan ko‘paytirishni, payvandlashni;
- Darslikdagi matn va rasmlar bilan ishlashni uddalay olishi kerak.
- Muhim belgilarni aniqlash maqsadida eng asosiy ekinlarni, o‘rganilgan oila turlarini taniy bilishi;
- O‘simliklarning turlarini aniqlagichdan foydalanib aniqlay olishi;
- Maktab oldi tajriba maydonchasida ishlashi, o‘simliklarning biologiyasiga oid bilimlarni ekinlarni parvarish qilishda qo‘llay olishi;
- Darslik mundarijasidan yordamida mo‘ljal olishni bilish, matn va rasmlar bilan ishlay olishi, paragraf mavzuning asosiy mazmunini farqlay olishi, savollarga javob bera olishi;
- Biologik atamalar lug‘ati bilan ishlay olishi kerak.

Yuqorida qayd etilganidek, botanikadan tuzilgan dts bajarish majburiy bo‘lib biologiya o‘qituvchilarining zimmasiga yuklanadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida botanikadan tuzilgan dts bajarilishi “o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi” orqali aniqlanadi.

umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida botanikadan tuzilgan dtsda qayd etilgan maksimal talablar asosida o‘quv dasturi tayyorlanadi. O‘quv dasturida o‘quv fani bo‘yicha o‘rganiladigan bob va mavzular o‘quvchilarning yoshlik va psixologik xususiyatlari, mavzular o‘rtasidagi uzviylik va izchillik asosida mantiqiy bir tizimga keltirilgan holda beriladi. O‘quv dasturida o‘rganiladigan boblar ularni o‘rganish uchun ajratilgan soatlar ko‘rsatiladi, mazkur boblar tarkibiga kiradigan mavzularning qisqacha mazmuni yoritiladi. Botanikadan tuzilgan o‘quv dasturi mazkur o‘quv fanining mazmunini belgilab beradigan va bajarilishi majburiy bo‘lgan me‘yoriy hujjat sanaladi.

5-sinfda o‘qitiladigan “botanika” o‘quv fani quyidagi boblar va mavzularni o‘z ichiga oladi.

№	Boblar	Soat
1.	Kirish	1
	Botanika fanining rivojlanish tarixi	2
	Gulli o‘simliklar bilan umumiy tanishish	3
	Hujayra	7
	Ildiz	6
	Poya	8
	Barg	7

jami 34 soat

Belgilangan qoidaga muvofiq ba‘zi hollarda biologiya o‘qituvchisi mahalliy sharoit, umumta‘lim maktablarining moddiy-texnika bazasi, o‘quvchilarning o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda mavzular ketma-ketligi, ularga ajratilgan soatlarni 10 foizgacha o‘zgartirishi mumkin.

6-sinfda o‘qitiladigan “botanika” o‘quv fani quyidagi boblar va mavzularni o‘z ichiga oladi.

№	Boblar	Soat
1.	Kirish	1
2.	O‘simliklarning vegetativ ko‘payishi	2
3.	Gul	6
4.	Meva va urug‘	8
5.	O‘simlik yaxlit organizm	2
6.	O‘simliklar sistematikasi	37
7.	O‘zbekistonning o‘simlik boyliklari	3
8.	O‘simlik va tashqi muhit	4
9.	Erda o‘simliklarning rivojlanishi	2
10	Manzarali o‘simliklar	3

Jami 68 soat

O‘quv fani bo‘yicha tuzilgan dastur darslik yozishga asos bo‘ladi.

respublikamizda “uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konstepstiyasi”da umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun yaratiladigan darsliklarning yangi avlodiga qo‘yiladigan umumiy va xususiy talablar ishlab chiqilgan. Mazkur talablar darslikka qo‘yiladigan pedagogik, psixologik, didaktik, metodik va estetik talablarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu talablarning eng asosiysi darslik shu fan bo‘yicha tuzilgan dts ga mos kelishi, o‘quvchilarning yoshlik va psixologik xususiyatlarini hisobga olinishi, darslik dizayni estetik talablarga javob berishi va rasmlar mazmuni yoritishi, fan yutuqlari o‘z aksini topishi, o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikr yuritishga yo‘llashi, ularning ongi va qalbiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirishga imkon berishi zarur.

Respublikamiz maktablarining 5-sinfida o‘. Pratorov, a.s. To‘xtaev, f.o‘. Azimovlar tomonidan nashr etilgan darslikdan foydalaniladi.¹ umumta’lim maktablarining 6-sinfida shu mulliflar tomonidan nashr etilgan darslikdan foydalaniladi.²

Mazkur darslikni yuqorida qayd etilgan talablar asosida tahlil qilinsa, uning yutuqlari ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Darsliklar dts va o‘quv dasturiga mos keladi. Rasmlar rangli, mavzularning mazmunini yoritishga xizmat qiladi. Har bir mavzu yakunida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun savol, topshiriqlar va krossvordlar berilgan. O‘quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirishga imkon beradigan materiallar kiritilgan.

Shu bilan bir qatorda darsliklarni mukammal deb ham bo‘lmaydi, ularda muayyan kamchiliklar ham uchraydi. Darslik akademik tilda yozilgan, tili og‘ir shu jihatdan o‘quvchilarning so‘z boyligi hisobga olinmagan. Ba’zi mavzularda asosiy tushunchalarga ta’rif va ta’sif berilmagan, faqat sanab ketilgan. Oilalarni o‘rganishda o‘quvchilarga notanish bo‘lgan o‘simliklar olingan va h. K. Biologiya o‘qituvchisi darsliklardagi kamchiliklarni aniq bilishi va unga darslar davomida barxam berishi lozim.

Biologik ta’lim mazmunida tushunchalarni mazmun va mohiyatiga ko‘ra umumiy biologik tushunchalar va xususiy tushunchalarga ajratiladi. Umumiy biologik tushunchalar biologiya fanining barcha tarmoqlarida foydalaniladi va ularga misol qilib hujayra, irsiyat va o‘zgaruvchanlik, modda va energiya almashinuvi, organizm va ekologik muhit, organizmlarning ko‘payishi va rivojlanishi, organizmlarning evolyustiyasi kabilarni olish mumkin.

¹ Ў. Пратов, А.С. Тўхтаев, Ф. Ў. Азимова Ботаника 5-синф учун дарслик. Т., “Ўзбекистон” 2003 йил

² Ў. Пратов, А.С. Тўхтаев, Ф. Ў. Азимова. Ботаника 6-синф учун дарслик. Т., “Ўзбекистон” 2003 йил

Xususiy tushunchalar biologiya fanining muayyan tarmog'ida foydalaniladi va ularga botanikadagi plastida, fotosintez, changlanish, mexanik, assimistiyalovchi, hosil qiluvchi to'qimalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Botanikani o'qitish mazmunida o'quvchilarda morfologik, anatomik, fiziologik, genetik, sistematik, ekologik, evolyustion, gigienik tushunchalarni shakllantirish nazarda tutilgan. Mazkur tushunchalar har bir mavzuni o'rganishda bir-biri bilan uzviy shakllantiriladi. Mavzularning tahlili, ularda mazkur tushunchalarning nisbati teng emasligini ko'rsatadi. Ba'zi mavzularni o'rganishda morfologik tushunchalar etakchi o'rinni egallaydi. Masalan, "ildizning tashqi tuzilishi", "oddiy va murakkab barglar", "poyalarning xilma-xilligi". Bunday mavzularni morfologik mazmundagi mavzular va mos ravishda mazkur mavzularni o'rganishga bag'ishlangan darslar morfologik mazmundagi darslar deyiladi.

"hujayra", "ildiz zonalari", "poyaning ichki tuzilishi", "barglarning hujayraviy tuzilishi" mavzularida anatomik tushunchalar ustunlik qiladi. Shu sababli bu mavzular anatomik mazmundagi mavzular va mos ravishda anatomik mazmundagi darslar deyiladi. Xuddi shunday misollarni fiziologik, genetik, sistematik, ekologik evolyustion, gigienik mazmundagi darslarga ham keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda botanikadan tuzilgan dts "ta'lim mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar" va "o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal va maksimal talablar" ni o'z ichiga olib, u dastur va darslik yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarning bilimlarini mustahkamlash uchun o'quv topshiriqlari

O'FE	O'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun o'quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatma
1-O'FE	Maqsad: umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tuzilgan dts ning mazmun va mohiyatini o'rganish. Amaliy mashg'uloti matnini o'rganing va quyidagi savollarga javob toping: 1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dtsni joriy etishning nazariy va huquqiy asoslarini aniqlang. 2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun dts ishlab chiqishda qaysi prinstitplar asos qilib olingan? 3. Dts nimalarni belgilashini aniqlang.	Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda ishlang Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting
2-O'FE	Maqsad: dts ning tarkibiy qismlarini o'rganish. Amaliy mashg'uloti matnini o'rganing va quyidagi savollarga javob toping: 1. O'quv fanlari bo'yicha tuzilgan dts nimalar uchun asos bo'lib xizmat qilishini aniqlang. 2. O'quv fanlari bo'yicha tuzilgan dts nimalarni o'zida mujassamlashtiradi?	Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda ishlang Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting

	<p>3. Dts ning “ta’lim mazmuni negizini belgilovchi ko’rsatkichlar” tarkibiy qismi qanday vazifani bajaradi?</p> <p>4. Dtsning “o’quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan minimal va maksimal talablar” nimalarni ifodalaydi?</p>	
3-O’FE	<p>Maqsad: botanikadan tuzilgan dts ni tahlil qilish. Amaliy mashg’uloti matnini o’rganing va quyidagi savollarga javob toping:</p> <p>1. Biologiyadan tuzilgan dts da “ta’lim mazmuni negizini belgilovchi ko’rsatkichlar” va “o’quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan talablar” qanday yo’nalishlarni o’z ichiga oladi? Mazkur yo’nalishlarning mazmuni va mohiyatini tushuntiring.</p> <p>2. Botanikadan tuzilgan dts da “o’quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo’yilgan talablar”ni o’rganing.</p> <p>3. Mazkur talablarni ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish yo’llarini belgilang va 1-jadvalni to’ldiring.</p>	<p>Kichik guruh a’zolari bilan hamkorlikda ishlang Talabalar bilan o’tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting</p>
4-O’FE	<p>Maqsad: botanikadan tuzilgan o’quv dasturi va darslikni tahlil qilish. Botanikadan tuzilgan o’quv dasturi va darsliklarni quyidagi tartibda ko’rib chiqing:</p> <p>1. O’quv dasturidagi mavzularning ketma-ketligida uzviylik mavjudmi?</p> <p>2. Darslikdagi mavzular ketma-ketligi o’quv dasturiga mos ravishda berilganmi?</p> <p>Darslikni tahlil qiling uning yutug’i va kamchiliklarini ko’rsating.</p>	<p>Kichik guruh a’zolari bilan hamkorlikda ishlang Talabalar bilan o’tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting</p>

1-jadval

Botanikadan tuzilgan DTS tahlili

N	Botanikadan o’quvchilarning bilimiga qo’yilgan talablar	Qaysi mavzularda tarkib toptiriladi	Qaysi mavzularda rivojlantiriladi
1	Gulli o’simliklar organlarining tuzilishi		
2	O’simliklarning hujayraviy tuzilishi		
3	O’simlik hujayrasining tarkibiy qismlari		
4	O’simlik to’qimalari		
5	O’simliklarning hayotiy shakllari		

6	Kuzda va bahorda o'simliklar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlar		
7	Gul, uning tuzilishi, xillari.		

Mavzu: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining zoologiyadan DTS, o'quv dasturi va darslikning tahlili.

Amaliy mashg'ulotining maqsadi:

Talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarining zoologiyadan DTS, o'quv dasturi bilan tanishtirish, darsliklarda berilgan mavzularni tahlil qilishga o'rgatish;

Mashg'ulot davomida talaba:

- Umumiy o'rta ta'lim maktablarining zoologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standartining mazmuni va mohiyati, ularni ishlab chiqish va joriy etish asoslarini anglashi;
- Zoologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standarti mazmunining o'quv dasturi bilan uzviylikini tushunishi;
- Zoologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standartida o'quvchilarning bilim va ko'nikmasiga qo'yilgan minimal va maksimal talablarni o'rganishi, ularni nazorat qilish va baholash ko'nikmalari;
- Umumiy o'rta ta'lim maktablarining zoologiyadan DTS, o'quv dasturi va darsliklarni tahlil qilish ko'nikmasini egallashi;
- Zoologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish yo'llarini belgilashi lozim.

Zarur jihozlar: Biologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standarti, o'quv

Dasturi, 5 va 6-sinf uchun "zoologiya" darsligi, "davlat ta'lim standarti va o'quv dasturining uzviyligi" jadvali.

Amaliy mashg'ulotida foydalaniladigan pedagogik texnologiya: hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash metodi.

Amaliy mashg'ulotining borishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Talabalarni amaliy mashg'ulotining maqsadi, borishi, mustaqil bajariladigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtirish.
3. Zoologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standartining mazmuni va mohiyati bilan tanishtirish.
4. Zoologiyadan tuzilgan davlat ta'lim standartida berilgan o'quvchilarning egallagan bilim va ko'nikmasiga qo'yilgan minimal va maksimal talablarni o'rganish.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining zoologiyadan o'quv dasturi va darsliklarni tahlil qilish.
6. Amaliy mashg'ulotini yakunlash.

1-amaliy mashg'ulotida o'zbekiston respublikasida uzluksiz ta'limni joriy etishning ilmiy-nazariy asosi bo'lgan "ta'lim to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida

“davlat ta’lim standartlari umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta’lim standartlarini bajarish o’zbekiston respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir” deb belgilab qo’yilganligi qayd etilgan edi. Shu sababli mazkur amaliy mashg’uloti materiallarini qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida zoologiyani o’qitish 7-sinfda (haftasiga 2-soatdan, jami 68-soat) rejalashtirilgan.

“Zoologiya”dan o’quvchilarning bilim malakasiga bo’lgan asosiy talablar etib quyidagilar belgilangan.

O’quvchilar:

- Tur, urug’, oila, turkum, sinf, tip to’g’risidagi asosiy taksonomik tushunchalarni;
- Hayvonlarning hujayraviy tuzilishi, hayvon hujayrasining o’simlik hujayrasiga o’xshashligi va farq qiluvchi xususiyatlarini;
- Hayvonlarning tashqi tuzilishi, umumrtqasiz va umurtqali hayvonlar tuzilishining asosiy xususiyatlari va ularning yashash muhiti bilan bog’liqligini;
- Hayvonlarning organlari va ularning asosiy vazifalarini;
- Hayvonlarda ovqat hazm qilish, ayirish, nafas olish, qon aylanish organlari tuzilishining asosiy xususiyatlarini;
- Hayvonlarning nerv sistemasi va sezgi a’zolari tuzilishi va fe’l-atvor xususiyatlarini;
- Tarixiy rivojlanish jarayonida hayvonlar xilma-xilligining ortib borishi va tuzilishining murakkablashib borishi sabablarini;
- O’rganilayotgan sistematik guruhlariga mansub hayvonlarning tuzilishi va hayotiy xususiyatlarini, ularning tabiatda, xalq xo’jaligi va inson faoliyatidagi ahamiyatini bilishlari kerak.

Zoologiyadan tuzilgan DTS ida o’quvchilar o’zlashtirishi lozim bo’lgan bilimlar bilan bir qatorda ular egallashi kerak bo’lgan ko’nikma va malakalar ham berilgan. Jumladan, zoologiyani o’rganish davomida o’quvchilar quyidagi ko’nikma va malakalarni egallashi qayd etilgan:

- Noyob yo’qolib borayotgan hayvon turlarini muhofaza qilish tadbirlarini o’tkazish;
- Eng muhim sistematik belgilar asosida mahalliy sharoitda tarqalgan hayvon tiplari va sinflari hamda ularga mansub asosiy turlarni bilish va aniqlagich yordamida aniqlash;
- Hayvonlarni parvarish qilish, ular ustida kuzatish olib borish, oddiy tajribalar o’tkazishlari;
- O’rganilgan hayvonlardan kollekstiya tayyorlash, kollekstiya va rasmlar yordamida o’rganilgan hayvonlarni tabiatda tanib olish;
- Mundarija yordamida darslikdan foydalanish, rasmlar bilan ishlash, dars mavzusi oxirida keltirilgan savollarga aniq javob berish;
- Biologik atamalar bilan ishlash malakasiga ega bo’lishlari kerak.

Zoologiyadan tuzilgan dts bajarish majburiy bo’lib biologiya o’qituvchilarining zimmasiga yuklanadi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida zoologiyadan tuzilgan dts bajarilishi, xuddi botanikadagidek “oʻquvchilarning oʻzlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi” orqali aniqlanadi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida zoologiyadan tuzilgan dtsda qayd etilgan maksimal talablar asosida oʻquv dasturi tayyorlanadi. Oʻquv dasturida oʻquv fani boʻyicha oʻrganiladigan bob va mavzular oʻquvchilarning yoshlik va psixologik xususiyatlari, mavzular oʻrtasidagi uzviylik va izchillik asosida mantiqiy bir tizimga keltirilgan holda beriladi. Oʻquv dasturida oʻrganiladigan boblar ularni oʻrganish uchun ajratilgan soatlar koʻrsatiladi, mazkur boblar tarkibiga kiradigan mavzularning qisqacha mazmuni yoritiladi. Zoologiyadan tuzilgan oʻquv dasturi mazkur oʻquv fanining mazmunini belgilab beradigan va bajarilishi majburiy boʻlgan meʼyoriy hujjat sanaladi. 7-sinfda oʻqitiladigan “zoologiya” oʻquv fani quyidagi boblar va mavzularni oʻz ichiga oladi.

№	Boblar	soat
1.	Hayvonot dunyosi toʻgʻrisida umumiy maʼlumot	1
2.	Bir hujayralilar yaʼni sodda hayvonlar	4
3.	Koʻp hujayrali hayvonlar. Boʻshliqichlilar tipi	2
4.	Yassi chuvalchanglar tipi	3
5.	Toʻgarak chuvalchanglar tipi	2
6.	Halqali chuvalchanglar tipi	2
7.	Mollyuskalar tipi	2
8.	Boʻgʻimoyoqlilar tipi	12
9.	Xordalilar tipi	40

jami 68 soat

Oʻquv fani boʻyicha tuzilgan dastur darslik yozishga asos boʻladi.

Respublikamizda “uzluksiz taʼlim tizimi uchun oʻquv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konstepstiyasi”da umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun yaratiladigan darsliklarning yangi avlodiga qoʻyiladigan umumiy va xususiy talablar ishlab chiqilgan. Mazkur talablar darslikka qoʻyiladigan pedagogik, psixologik, didaktik, metodik va estetik talablarni oʻzida mujassamlashtiradi. Ushbu talablarning eng asosiysi darslik shu fan boʻyicha tuzilgan dts ga mos kelishi, oʻquvchilarning yoshlik va psixologik xususiyatlarini hisobga olinishi, darslik dizayni estetik talablarga javob berishi va rasmlar mazmuni yoritishi, fan yutuqlari oʻz aksini topishi, oʻquvchilarni mustaqil va ijodiy fikr yuritishga yoʻllashi, ularning ongi va qalbiga milliy istiqloq gʻoyasini singdirishga imkon berishi zarur.

Respublikamiz maktablarining 7-sinfida o. Mavlonov tomonidan chop etilgan darslikdan foydalaniladi.¹ mazkur darslikni yuqorida qayd etilgan talablar asosida tahlil qilinsa, uning yutuqlari va kamchiliklari koʻzga yaqqol tashlanadi.

Biologiya oʻqituvchisi darsliklardagi kamchiliklarni aniq bilishi va unga darslar davomida barham berishi lozim.

Botanikani oʻqitish mazmunida oʻquvchilarda morfologik, anatomik, fiziologik, genetik, sistematik, ekologik, evolyusion, gigienik tushunchalarni shakllantirish nazarda tutilgan edi. Mazkur tushunchalar har bir mavzuni oʻrganishda bir-biri bilan uzviy shakllantirilishi qayd etilgan edi. Zoologiya darsligining tahlili, unda mazkur tushunchalar bitta mavzuning matnida uchrashini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, zoologiyadan tuzilgan dts oʻquvchilarning tayyorgarlik darajasiga qoʻyiladigan minimal va maksimal talablarni oʻz ichiga olib, u oʻquv fani dasturi va darslik yaratishga asos boʻlib xizmat qiladi.

**TALABALARNING BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN O‘QUV
TOPSHIRIQLARI**

O‘FE	O‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun o‘quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatma
1-O‘FE	<p>Maqsad: zoologiyadan tuzilgan dts ni tahlil qilish. Amaliy mashg‘uloti matnini o‘rganing va quyidagi savollarga javob toping:</p> <p>1. Zoologiyadan tuzilgan dts da “o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan talablar”ni o‘rganing.</p> <p>2. Mazkur talablarni ta‘lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish yo‘llarini belgilang va 1-jadvalni to‘ldiring.</p>	<p>Kichik guruh a‘zolari bilan hamkorlikda ishlang Talabalar bilan o‘tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting</p>
2-O‘FE	<p>Maqsad: zoologiyadan tuzilgan o‘quv dasturi va darslikni tahlil qilish. O‘quv dasturi va darsliklarni quyidagi tartibda ko‘rib chiqing:</p> <p>1. O‘quv dasturidagi mavzularning ketma-ketligida uzviylik mavjudmi?</p> <p>2. Darslikdagi mavzular ketma-ketligi o‘quv dasturiga mos ravishda berilganmi?</p> <p>3. Darslikni tahlil qiling uning yutug‘i, kamchiliklarini ko‘rsating.</p>	<p>Kichik guruh a‘zolari bilan hamkorlikda ishlang Talabalar bilan o‘tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting</p>

1-jadval

Zoologiyadan tuzilgan DTS tahlili

N	Zoologiyadan O‘quvchilarning bilimiga qO‘yilgan talablar	Qaysi mavzularda tarkib toptiriladi	Qaysi mavzularda rivojlantiriladi
1	Tur, urug‘, oila, turkum, sinf, tip		
2	Hayvonlarning hujayraviy tuzilishi, tO‘qimalar		
3	Umurtqasiz hayvonlar tuzilishi va ularning yashash muhiti bilan bog‘liqligi		
4	Umurtqali hayvonlar tuzilishi va ularning yashash muhiti bilan bog‘liqligi		
5	Hayvonlarda ovqat hazm qilish, ayirish, nafas olish, qon aylanish organlari tuzilishi		
6	Hayvonlarning nerv sistemasi va sezgi a‘zolari tuzilishi va fe‘l-atvor xususiyatlari		

Uyga vazifa:

- Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinfi uchun zoologiya oʻquv fani uchun tuzilgan oʻquv dasturi va darsliklarining mantiqiy tuzilishini aniqlang;
- Oʻzlashtirgan bilimlaringiz asosida zoologiyadan taqvim-reja tuzish yoʻllarini belgilang;